

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАДАНИЯТ ВАЗИРЛИГИ
ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ХОРЕОГРАФИЯ АКАДЕМИЯСИ
ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ЭТНОМАДАНИЙ БИРЛАШМАЛАРИ
"ДҮСТЛИК" ҲАМЖАМИЯТИ
МОСКВА ДАВЛАТ ЛИНГВИСТИКА УНИВЕРСИТЕТИ
ЖАНУБИЙ ҚОЗОҒИСТОН ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ
РЕСПУБЛИКА МАҶНАВИЯТ ВА МАҶРИФАТ МАРКАЗИ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ
МИЛЛАТЛАРАРО МУНОСАБАТЛАР ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР БИЛАН
ДҮСТЛИК АЛОҚАЛАРИ ҚўМИТАСИ
ЎЗБЕКИСТОНДА ШАНХАЙ ҲАМКОРЛИК ТАШКИЛОТИНИНГ ҲАЛҚ
ДИПЛОМАТИЯСИ МАРКАЗИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ**

**“САНЬАТ ВА АДАБИЁТ:
ИЛМИЙ - АМАЛИЙ ИЗЛАНИШЛАР”**

**Халқаро илмий-амалий
конференция материаллари**

**“ИСКУССТВО И ЛИТЕРАТУРА:
НАУЧНЫЕ - ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОИСКИ”**

Материалы Международной научно-теоретической конференции

Тошкент-2022

УДК: 56.68

ККБ79(Ў)

Санъат ва адабиёт: илмий - амалий изланишлар. Мақолалар. 412-б.

Мазкур Халқаро конференция “Мусиқа ва санъат ўкув муассасалари учун “Болалар рақслари” фанидан ЗД тизимли интерактив ўкув-методик құлланималар яратып” мавзусидаги амалий лойиха доирасыда үтказилди.

Масъул мухаррир:

Хулкар Ҳамроева – филология фанлари доктори (DSc)

Жамоатчилек көнгөши: Минхажиддин Мирзо – Республика Мәйнавият ва маърифат маркази раҳбари, сенатор; Икромжон Ҳошимжонов – Қозогистон ўзбеклари этномаданий бирлашмалари “Дўстлик” хамжамияти раиси; Азамат Тошев – ЎзР ВМ хузуридаги миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқалари қўмитаси раиси ўринбосари; Қобилжон Собиров –ШХТ Халқ дипломатияси маркази директори; Бегам Қораева – Москва давлат Лингвистика университети доценти, п.ф.н.; Шахло Наралиева - Жанубий Қозогистон давлат педагогика университети доценти;

Таҳир хайъати:

Ш.М.Тоҳтасимов – раис, ЎзДХА ректори, профессор
М.Фофуров – раис ўринбосари, ЎзДХА проректори, доцент
Ж.Фаниев – раис ўринбосари, т.ф.н., ЎзДХА проректори
Н.Қосимов – раис ўринбосари, ф.ф.н., проф., ЎзДХА проректори
Г.Матёкубова – аъзо, Ўзбекистон халқ артисти, ЎзДХА профессори
Р.Р.Сайфуллаева – аъзо, фил.ф.д., ЎзМУ профессори
Б.С.Мусаева – аъзо, ф.ф.д., Боку славян университети проф. (Озарбайжон)
С.Фаниев – аъзо, Жанубий Қозогистон давлат педагогика университети доценти
Ё.Сайдов – аъзо, фил.ф.д., БухДУ профессори
Н.Шарипова – аъзо, ОАК раисининг маслаҳатчиси
И.Останакулов- аъзо, т.ф.д., ЎзДСМИ профессори
Р.Х. Шарипов – аъзо, ф.ф.н., ТДШУ доценти
С.Холмирзаева – аъзо, ф.ф.н., Тошкент давлат аграр университети доценти
Р.М.Абдуллаева – аъзо, п.ф.д. (DSc), ТТА доценти
А.Улуғов – аъзо, фил.ф.н., А.Навоий номидаги ТДЎТАУ профессори
Б.Рахмонов – аъзо, ф.ф.н., АДУ доценти
М.Курбонова - аъзо, фил.ф.бўйича фалс.доктори (PhD), ФарДУ доценти
Г.Эргашева – аъзо, с.ф.н., ЎММСИ доценти
М.Қосимова- аъзо, ф.ф.н., АДУ Педагогика институти доценти
М.Муродова - аъзо, фил.ф.бўйича фалс.доктори (PhD), ЎзДХА профессори
С.Умирова – аъзо, фил.ф.бўйича фалс.доктори (PhD), СамДУ доценти
Ф.Икрамходжаев – аъзо, ЎзДХА сиртки (махсус сиртки) бўлим бошлиги
П.Ташкенбаев – аъзо, с.ф.н., ЎзДХА доценти
Н.Алимджанова – аъзо, ЎзДХА доценти
Ш.Ҳамилова – аъзо, ЎзДХА доценти
Г.Насруллаева – аъзо, ф.ф.н., ТАТУ Қарши филиали доценти
Д.Абдуҳакимова – аъзо, ЎзДХА кафедра мудири, доцент
Ш.Умаров – аъзо, ЎзДХА илмий котиби, доцент
Т.Бутунбаева – аъзо, фил.ф.бўйича фалс.доктори (PhD)
Д.Досжанова – аъзо, ЎзДХА ўқитувчиши
С.Исматова - аъзо, ЎзДХА санъатшунослик йўналиши 2-курс талабаси

Материаллар муаллифлар таҳририда тақдим этилмоқда.

Agar qaysi til bilan so‘z so‘zlaysan deb so‘rasalar, sidq-u sadoqat tili bilan deb aytgil. Agar so‘zni qaysi quloq bilan eshitasan deb so‘rasalar, qabul qulog‘i bilan deb aytgil.

Agar so‘z senikimi yoki sen so‘znikimi deb so‘rasalar, aytgil: men so‘zniki va so‘z menikidir, chunki so‘z insonlik daraxtining mevasidir,. Daraxtni mevadan, mevani esa daraxtdan ajratib bo‘lmaydi» [1. 71-72].

Voiz Koshifiy mana shu tarzda asarning oltinchi bobining ikkinchi faslida ma’raka tuzuvchi so‘z ahli, ya’ni notiqlar haqida ma’lumot berib, ularni uch toifaga ajratadi: birinchi toifa – maddohlar, g‘azalxonlar va saqqolar (meshkobchilar). Ikkinchi toifa – xossago‘ylar (dorifurushlar) va bisotandozlar (ko‘rgazmachilar). Uchinchi toifa – qissa so‘ylaguvchilar va afsona aytuvchilar.

Ularning har birining fazilatlari haqida so‘z yuritib, adab shakllarini birma-bir ko‘rsatib, nutq so‘zlaganlarida meyorni saqlash lozimligini bir necha bor takrorlaydi [1. 71-72]. Mavlono Voiz Koshifiyning bu asari axloq-odob dasturi sifatida bugungi kunda ham g‘oyatda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Нусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2011.

O‘ZBEK ADABIY TILINI DAVRLASHTIRISH

MASALASI

**Saidov Yoqub Siddiqovich,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori**

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek adabiy tilini davrlashtirish muammosi tilshunoslik fani uchun muhim masalalardan biri ekanligi ochib berilgan, shunga ko‘ra u bo‘yicha mavjud ilmiy-nazariy manba, qarash va munosabatlar qisman o‘rganilgan, ularning ahamiyatli hamda kamchilik tomonlari ko‘rsatib o‘tilgan, mavzu echimiga doir ayrim tavsiyaviy xulosalar ifodalangan.

Kalit so‘zlar: tasnif, davrlashtirish, adabiy til, qadimgi turkiy til, turkiy til, o‘zbek tili, fonetika, morfologiya, leksika.

O‘zbek adabiy tili o‘zining tashkil topishi va shakllanishining dastlabki davrlaridan boshlab hozirgi kunlargacha juda murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. O‘zbek xalqining tashkil topishini o‘rganish, etnik tarkibi va uning o‘ziga xos murakkab tarixiy rivojlanish xususiyatlarini ochib berish, qadimgi umumtarkiy adabiy til hamda hozirgi turkiy tillar tarkibida o‘zbek adabiy tilining tutgan o‘mini belgilashda davrlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Til tarixini davrlashtirish o‘zbek tilshunosligi fani uchun eng muhim masalalardan biridir. Chunki davrlashtirish orqali o‘zbek tili va unga qardosh turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, o‘zaro munosabat hamda aloqalari, boshqa tizimdag‘i tillarning bevosita hamda bilvosita ta’siri kabilarni aniqlash mumkin.

Adabiy til tarixi shu tilda so‘zlashuvchi xalq tarixi, adabiy tilning tuzilmasi, tarkibiy qurilishdagi o‘zgarishlar bilan, shuningdek, ijtimoiy vazifalari o‘zgarishi bilan uzviy ravishda bog‘langandir. Ma’lumki, davrlashtirish turkiy tillarning tasnifi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Tasnif ma’lum darajada tillar tarixini davrlashtirish demakdir. Chunki tasnifda ham, davrlashtirishda ham bir xil prinsipga, ya’ni tarixiylik prinsipi amal qilinadi [5, 21].

Hozirga qadar fanga ma’lum bo‘lgani shuki, turkiy tillarni ilk bor XI asrda Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida tasnif etgan [2]. Bu dastlabki tasnif bo‘lishiga qaramay haliga qadar u o‘zining ilmiy ahamiyatini yo‘qotgan emas. Mazkur tasnif aniqligi, soddaligi va mukamalligiga ko‘ra undan keyin yaratilgan tasniflardan alohida ajralib turadi.

Turkiy tillar tasnifi masalasida xorij, xususan, rus olimlari XIX asrdan boshlab maxsus shug‘ullana boshladilar. Ular jumlasiga V.V.Radlov, A.N.Samoylovich, S.E.Malov, N.A.Baskakov kabilarni aytib o‘tish mumkin [5, 21]. Har bir olim masalaga o‘z nuqtai nazariga ko‘ra yondoshgan. Masalan, V.V.Radlov (1837-1918) turkiy tillarni tasnif etishda ko‘proq uning o‘rinlashgan geografik hududiga e’tibor qaratgan va shunga ko‘ra turkiy tillarni to‘rt guruhga ajratgan: Ular quyidagilardir: 1. Sharqiy guruh. (Bu guruhga *oltoy, chulim, xakas, shor, tuva* va *enasoy turklarining* tili kiradi). 2. G‘arbiy guruh. (Bu guruhga *qirg‘iz, qozoq,*

qoraqalpoq, tatar, boshqird tillari kiradi). 3. O'rta Osiyo guruhi. (Bu guruhga *uyg 'ur* va *o 'zbek* tillari kiradi). 4. Janubiy guruhi. (Bu guruhga *turkman, ozarbayjon* va *turk* tillari kiradi).

A.N.Samoylovich (1880-1938) o'zbek adabiy tilining shakllanish yo'llarini tadqiq etish va uni tasniflashga harakat qilib, bu borada 1932-yilda "O'zbek adabiy tilining qurilish yo'llari haqida" nomli asarini yozadi. Olimning tasnifida turkiy tillar oltita guruhga bo'lingan. Uning ushbu tasnifida fonetik tamoyil asos qilib olingan. Tasnifda turkiy tillar guruhi quyidagilardan iborat tarzda keltirilgan: 1. Bulg'or guruhi. Bu **R** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga eski bulg'or va hozirgi chuvash tillari kiradi). 2. Shimoli-Sharqiy yoki uyg'ur guruhi. Bu **D** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga uyg'ur, tuva, salar tillari kiradi). 3. Shimoli-G'arbiy yoki qipchoq guruhi. Bu **Tau** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga oltoy, qirg'iz, qumiq, tatar, boshqird, qozoq tillari kiradi). 4. Janubi-Sharqiy yoki chig'atoy guruhi. Bu **Tag'liq** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga o'zbek va uyg'ur tillari kiradi). 5. O'rta yoki qipchoq-turkman guruhi. Bu **Tag'liq** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga qipchoq-turkman tillari kiradi). 6. Janubi-G'arbiy guruhi. Bu **Ol** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga ozarbayjon, turk, gagauz tillari kiradi) [3, 118].

Aytish mumkinki, mazkur tasniflarni fan uchun ahamiyatli deb bo'lmaydi. Chunki ularda turkiy tillarga bir tomonlama yondoshilgan holatlar ko'p kuzatiladi. Masalan, ba'zi tasniflarda turkiy tillar hududiy ko'lamiga ko'ra tasnif etilgan bo'lsa, ba'zilarida faqat til xususiyatlari e'tiborga olingan, boshqalarida esa til tarixi xalq tarixi bilan bog'lanmagan.

Turkiston jadidchilik harakatining g'oyaviy rahnamosi Abdurauf Fitratning «Devonu lug'otit turk» asariga oid tadqiqotlaridan biri – «Eng eski turk adabiyoti namunaları» (1927) deb nomlangan tadqiqot-majmuasida mazkur tasniflar tahlil etilgan, ular bo'yicha olimning ayrim xulosaviy fikrlari ifodalangan: «Har holda bu tasniflarning ko'pda asosiy narsalar bo'limg'an ma'lum. Bulardan boshqa birda tarixiy tasnif Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'at»ida bordir» [6, 118]. Olimning mazkur fikridan quyidagilarni anglash mumkin:

- 1) xorij, chunonchi, rus turkshunoslarining tasnifida juda ko'p kamchiliklar mavjud, ularda turkiy tillar bir tomonlama tasnif etilgan. V.V.Radlovning ilmiy ishlarida turkiy tillar hududiy-geografik nuqtai nazardan, A.N.Samoylovichning ilmiy asarlarida esa turkiy tillar bir xil lingvistik belgisiga asoslanib tasnif etilgan.

Bunday yo‘l tutish xatolik va chalkashliklarni keltirib chiqarishi aniq. Shu uchun ularning tasniflari mukammallikdan yiroq hamda ulardan foydalanish kerak emas;

2) mazkur tasniflardan bir necha asr ilgari, ya’ni XI asrda yaratilgan tasnif ham mavjud bo‘lib, u Mahmud Koshg‘ariyga tegishlidir. Ayonki, olim turkiy xalqlarning hududiy-geografik jihatdan yashash manzillari va turkiy tillarning lingvistik xususiyatlarini alohida e’tiborga olib, turkiy tillarni ikkita guruhga bo‘ladi: 1. Turk yoki xoqoniy turkchasi tillari. 2. O‘g‘uz tillari.

Ma’lumki, «Devonu lug‘otit turk» asarida mazkur guruhdagi tillarning fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari mufassal tahlil etilgan, shularga asoslanib ular tasnif etilgan. Bu tarixiy tasnif ancha sodda, aniq va qisman mukammal ekanligini Fitrat alohida ta’kidlab, undan keng foydalanish, yaratilajak yangi tasniflarga, albatta, asos qilib olinishi lozimligini aytadi. Asarga tarixiy fonetika, morfologiya va leksikologiya uchun qimmatli materiallar beruvchi manba sifatida yuqori baho beradi. Chindan ham unda yuqoridagi yo‘nalishlar bo‘yicha ancha keng va to‘liq ma’lumotlar mavjud. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, turkiy tillar tasnifi masalasida Mahmud Koshg‘ariyning bu boradagi fikrlaridan darslik va o‘quv adabiyotlarini yaratishda foydalanish, maqsadga muvofiqdir. V.V.Radlov, A.N.Samoylovich kabilarning tasniflari esa mazkur masalani murakkablashtirishi va chigallashtirishi mumkin.

O‘zbek tili tarixini Tesha Salimov, Faxri Kamol, A.M.Shcherbak, Olim Usmon, Ergash Fozilov, Fattoh Abdullaev, U.Tursunov, B.O‘rinboev, A.Aliev, G‘.Abdurahmonov kabi olimlar davrlashtirgan. Bu olimlarning tarxlari orasida U.Tursunov, B.O‘rinboev va A.Alievlar tomonidan 1995-yilda chop etilgan “O‘zbek adabiy tili tarixi” darsligida davrlashtirish bo‘yicha ifodalangan fikrlar ilmiy-nazariy jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Unda o‘zbek adabiy tili tarixi quyidagicha davrlashtirilgan:

I.Qadimgi turkiy xalqlar davrida adabiy til (V-X asrlar).

II. Ilk davr o‘zbek xalq tili (X asrdan XIV asrning yarmigacha bo‘lgan davr): 1) o‘zbek adabiy tilida ikki xil funksional tipning shakllanishi va dastlabki taraqqiyoti (X-XII asrlar); 2) adabiy tilda mahalliylashish tamoyilining paydo bo‘lishi va kuchayishi (XII-XIV asrning yarmi).

III. O‘zbek xalqi tilining takomillashish davri (XIV asrning oxiridan XIX asrning ikkinchi yarmigacha): 1) o‘zbek xalq adabiy tilining to‘liq shakllanishi (XIV asrning oxiridan XVII asrgacha); 2) xalq adabiy tili bilan kitobiy tilning bir-biriga yaqinlashuvining tugallanishi va adabiy tilga so‘zlashuv nutqi xususiyatlarining singishi (XVII asr va XIX asrning II yarmigacha).

IV. Milliy til unsurlarining paydo bo‘lish, shakllanish va rivojlanish davridagi o‘zbek adabiy tili (XIX asrning II yarmidan hozirgi kungacha bo‘lgan davr); 1) XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida o‘zbek adabiy tilining boyib borishi va taraqqiyoti; 2) o‘zbek milliy tili va uning rivojlanishi. Milliy tilni yaratish va shakllantirish sohasidagi kurashlar: adabiy til uslublari to‘la shakllandи va ularning hajmi ancha kengaydi [5, 23-26].

G‘. Abdurahmonovning “O‘zbek xalqi va tilining shakllanish jarayonlari” (1999) nomli risolasidagi davrlashtirishga doir fikrlar ham ahamiyatlidir. Olim o‘zbek adabiy tili tarixini quydagicha davrlashtiradi: 1. Eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo‘lgan davr). 2. Qadimgi turkiy til (VIII-XI asrlar). 3. Eski turkiy til (XI-XIII asrlar). 4. Eski o‘zbek adabiy tili.(XIV-XIX asrlar). 5. Yangi o‘zbek adabiy tili (XIX-XX asrlar). 6. Hozirgi zamon adabiy tili [1].

Olimming tarxi aniq, sodda va ilmiy asosga ega bo‘lib, o‘zbek adabiy tilining tarixini o‘zida to‘liq aks ettirgan. Uning mazkur davrlashtirishga doir fikrlaridan soha bo‘yicha yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarida foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Biroq shuni ham alohida ta’kidlash o‘rinligi, mazkur masala doirasidagi tarxlarni mukammal davrlashtirish sifatida baholamaslik kerak, tadqiqiy izlanishlarni muntazam davom ettirish kerak.

Olimlarning tarxlarini umumlashtirib, o‘zbek adabiy tili tarixini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

I.Qadimgi turkiy til davri (V-X asrlar).

II. Eski turkiy til davri (XI asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davr).

III. Eski o‘zbek adabiy tili davri (XIV asrning ikkinchi yarmidan XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davr).

IV. Yangi o‘zbek adabiy tili davri (XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davr).

V. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (XX asrning 30 yillaridan to hozirgi kungacha bo‘lgan davr).

O‘zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish bo‘yicha to‘xtamli fikrga kelish, unga aniqlik kiritishni ijtimoiy davr taqozo etmoqda. Bu masalani hal etishda o‘zbek xalqi va tili tarixiga doir yangi ilmiy-tarixiy ma’lumotlarni e’tiborga olish, eng muhim, millat manfaatlarini alohida e’tiborga olish kerak. O‘zbek adabiy tili tarixini har tomonlama o‘rganish, uning taraqqiyot bosqichlariga xos jihatlarni umumlashtirish muhim masalalardan biridir. Uni davrlashtirish bo‘yicha qator tarxlar va tavsiyalar berilgan bo‘lsa ham mazkur muammo hali uzil-kesil o‘z echimini aniq topgan emas. Shunga ko‘ra ushbu masala o‘zbek tilshunosligining eng muhim va dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar

1. Абдурахмонов Ф. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиш жараёнлари. –Т.: 1999.
2. Кошфарий М. Девону луготит турк. I, II, III жиллар. -Т.: Фан, 1960-1963.
3. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. -М-Л; 1951.
4. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1995.
5. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1994.
6. Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари // Танланган асарлар. V жилдли, IV жилд. –Т.: Маянвият, 2006.

“EY MUKARRAMXON, O‘ZING AYT...” yoki Mushkinning bir manoqibi xususida

**Ikromiddin Ostonaqulov,
O‘zDSMI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dosenti,
tarix fanlari doktori**

Annotasiya. Maqolada xalq artisti, buyuk raqqosa va fidoyi tashkilotchi Mukarrama Turg‘unboyeva haqida yozilgan Mushkinning manoqibi mazmuni ilk marta yoritilgan bo‘lib, uning mazmuniga mazmun qo‘suvchi Turg‘unboy G‘oyipovning xotiralari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Mushkin, madhiya, raqqosa, G‘oyibiy, Farg‘ona ta’lim-tarbiya texnikumi, raqs san’ati, raqqosaning bolaligi, ustoz-shogird, ijod saodati.

3.Ўроқов, Д.Убайдуллаева	Ўзбек болалар фольклор рақслари.....	203
М.Шакирова	Жаҳонда кенг шуҳрат қозонган “Лазги”	205
D.Muhammadiyeva	Bolalar milliy o‘yinlari.....	209
M.Kamolova	Milliy raqs san’ati.....	212
O.Toshpo‘lotova	O‘zbek milliy raqs san’atining bolalar hayotidagi o‘rnı.....	214
М.Алижонова	Значение танцетерапии в профилактике стрессов.....	216
Вей Шу	Музыкальные произведения Китая в профилактике и лечении заболеваний.....	219
Ч.Сайдаззамова	Bolalar milliy va folklor raqslari, ularning salomatlikka ta’siri.....	222
Иккинчи шўъба. Замонавий таълим мақсади: маданиятшунослик, майнаиятшунослик, тилшунослик ва адабиётшунослик.		
R.Sayfullaeva	Word application of	
E.Vokhidov.....		227
S.Karimov	Mavlono Voiz Koshifiy nutq odobi va notiqlik san’ati haqida.....	241
Yo.Saidov	O‘zbek adabiy tilini davrlashtirish masalasi.....	243
И.Остонакулов	“Эй, Мукаррамхон, ўзинг айт...” ёки Мушкиннинг бир манокиби хусусида.....	249
Х.Хамроева	Ўзбекистон халқ шоири Сирожиддин Сайиднинг сўз қўллаш маҳорати.....	255
N.Sharipova	Notiqlik san’ati va yoshlar ma’naviyati.....	261
А.Улугов	Анвар Обиджон шеъриятининг ўзига хос хусусиятлари.....	267
М.Муродова, Х.Хамроева	Мир Алишер Навоий ижодида одамийлик концепцияси.....	273
Б.Раҳмонов	Ўзбек халқ латифаларининг замонлар оша яшовчанлик тамоилилари.....	279
С.Халмирзаева, Г.Юлдашева	Характеристика официально-делового стиля.....	285
Ш.Наралиева	Бадиий матнлар воситасида нуткий компетенцияни шакллантириш.....	291
Р.Шарипов	Бадиий таржиманинг ўзига хос хусусиятлари.....	297
M.Qosimova	Adabiy til ua nutq madaniyati.....	303
G.Muxamedjanova	Tarixiy romanlarda tarixiy shaxslar ruhiyati.....	309
M.Xolmurodova	Notiqlik san’atida verbal va noverbal birliklarning ijtimoiy ixtisoslashuvi.....	312
N.Sadinova	Talabalarga til orgatishda lugatning anamiyati.....	317
Д.Jumayeva	Abdulla Oripov she’riyatining til xususiyatlari.....	321
M.Shukurova	In the works of the people’s poet of Uzbekistan Enakhon Siddikova	